

TURIZMDAGI ISTIQBOLLI O'ZGARISHLAR

Obidov Behruz

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Turizm yo'nalishi

TOUP-512U talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada hozirgi davrda respublikamizda milliy turizmning barqaror rivojlanish muammolarini hal qilishning nazariy, uslubiy va amaliy yondashuvlarini ishlab chiqish, turistik mahsulotlar bozorini shakllantirish, mazkur soha faoliyatini tartibga solishning iqtisodiy usullari va uni boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini, turizmni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turizmni rivojlantirish uchun tarixiy joylarni ko'paytirish, muzeylarni rekonstruksiya qilish, ularni tarixini o'rganish kerak. Insonlar o'rtasida targ'ibot ishlarini kuchaytirish kerak.

Kalit so'zlar: *Turizm, transport, turistik firma, tarixiy obidalar, xalqaro aloqalar, O'zbek turizm milliy kompaniyasi.*

KIRISH

O'zbekistonning eng muhim tarixiy va turistik shaharlari dunyoning qadimgi madaniyat, ma'naviyat va sivilizatsiya markazlari sifatida jahon sayyohlarini o'ziga jalb qiladi. Bundan tashqari, mamlakatimizda turistik marshrutlarning ko'plab yo'nalishlari mavjud bo'lib, ularga sayyohlarni qiziqtirish mintaqalarda turizm infratuzilmasini rivojlantirishni taqozo etadi. Bizningcha, respublika viloyatlarining barchasida o'ziga xos turistik imkoniyatlari mavjud bo'lib, ularni o'rganish, mintaqalardagi mavjud turistik ob'ektlarni (tarixiy, madaniy, arxeologik, arxitektura, tabiiy rekreatsiya resurslar va h.k) chuqur iqtisodiy jihatdan baholash va aniq turistik marshrutlarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm sohasidagi mutaxassislarning fikricha, u XXI asrda dunyo miqyosida eng ustuvor fond keltiruvchi sohaga aylanadi. Hozir u dunyo bo'yicha avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyin uchinchi o'rinni egallab turibdi. Bu soha dunyo sanoati va qishloq, xo'jaligidan o'zib ketdilar. Turizmning tez rivojlanishiga yana bir sabab, u yuqoridarajadagi katta ilmiy tadqiqot xarajatini (naukoyomkiy) va quvvatni ko'p sarf qiladigan (energoyomkiy) texnologiyani talab qilmaydi. Biroq, turizm boshqa sohalarni rivojlantirishni taqozo qiladi. Shu tufayli ushbu soha bilan ko'pgina xizmat ko'rsatuvchi va servisni tashkil etish sohalari bir-biri bilan uzviy bog'liq, ravishda rivoj topmog'i lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Mustaqillik yillarida bir qancha alloma vaavliyolarimizning qadamjoylari, qabrmaqbaralari qaytadan kashf etildi. Ammo uni ham aholining aksariyat qismi bilishmaydi. Masalan, Tayloq tumanida Xo'ja Darun, Urgut tumanida Imomi A'zam, Baxmal tumanida Mir Sayd Xalil, G'allaorol tumanida Sadir Vagqoskabi avliyo va allomalarimizning maqbaralari qayta tiklandi, yirik majmualar qurildi. Bu ro'yxatni yana ham davom ettirish mumkin edi. Bularning hammasi diqqatga sazovar, tarixiy ahamiyatga molik, ma'naviyatimizning tarixiy ildizlaridan dalolat beruvchi obidalaridir. Ammo bu obidalar turistik marshrutga, diqqatga sazovor ob'ekt sifatida kiritilmagan. Bu joylarga faqat yerlik aholi ziyoratga boradilar, xolos.

O'sha joylarning tarixini, uning barcha qirralarini aholiga yetkazish va targ'ibot ishlarini olib borish kerak. Mustaqillik yillarida birgina Andijon shahri va viloyatida ko'plab zamonaviy mehmonxonalar qurildi va kapital ta' mirdan chiqarildi. Ularning ko'plari xorijiy investorlar ishtirokida amalga oshirildi. Natijada jahon andozalari talablariga javob beradigan mehmonxonalar shakllanmoqda. Ammo tan olib aytishimiz kerakki, hali xorijiy mehmonlarga jahon andozalari talablariga javob beradigan xizmat tizimi yetarli darajada shakllangan emas. Ularni inobatga olib, mamlakatimiz Prezidenti 2006-yil 17-aprel kuni "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga imzo chekdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida turistik faoliyat va joylashtirish xizmatlar eksporti hajmining oshishi xizmatlar ko'rsatish umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushining tobora yetakchi o'rin egallaganini ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich 2005-yilda 23143,7 ming AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, bashorat ko'rsatkichlariga ko'ra, istiqbolda (2019 yilda) O'zbekiston Respublikasida turistik faoliyat va joylashtirish xizmatlar eksport hajmining o'sishi 90234,0 ming AQSh dollari miqdorida, ya'ni 3,9 martaga oshishi kutilmoqda. Turizmning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki eksport uchun ishlab chiqarilgan turistik mahsulot mamlakat tashqarisiga olib chiqib ketilmaydi balki, shu davlatning o'zida realizatsiya qilinadi. Yaratilgan turistik mahsulot istemolchisining o'zi uni qiziqtiradigan turistik mahsulot ajratib turuvchi masofani bosib o'tadi.

Jahon bozorida xizmatlar savdosi singari turizmni ham ko'rinmaydigan eksport deb aytish mumkin. U mamlakat to'lov balansiga mos ravishda o'z ulushini kiritadi. Mintaqada turizmni rivojlanishidan olinadigan iqtisodiy samara turizm industriyasida qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini ta'minlash shuningdek mintaqadagi kuchsiz iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishini rag'batlantirishda namoyon bo'ladi.

Eksport (ing., lot. — olib chiqaman, chetga chiqaraman) — tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga

chiqarish. Tovarlarini bir mamlakat orqali olib o'tish (tranzit) va bir mamlakatdan olib kelingan tovarlarini boshqa mamlakatlarga sotish uchun chiqarqsh (reeksport) ham ekspotga kiradi.

Turizm (fransuzcha: our — sayr, sayohat), sayyohlik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiyamaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan 1 yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. Turizmning tarixi XIX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab Angliyadan Fransiyaga uyushgan sayyohlik tashkil etilgan (1815). Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843-yilda 1-temir yo'l sayyohligini tashkil qildi.

Shundan so'ng u o'zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866-yilda dastlabki sayyohlik guruxlari AQShga jo'natildi. Sharqda arab sayyohi Ibn Battuta 21 yoshida sayohatini boshlab, deyarli barcha Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarini piyoda kezib chiqdi. Hozirgi davrda Turizm dunyoning juda ko'p mamlakatlarida ommaviy tus olgan. Odatda, Turizm turizm tashkilotlari orqali turizm marshrutlari bo'yicha uyushtiriladi.

Turizmning juda ko'p turlari va shakllari mavjud (ichki, xalqaro, havaskorlik turizmi, uyushgan turizm, yaqin joyga sayohat, uzoqqa sayohat, bilim saviyasini kengaytirish maqsadidagi turizm, toqqa chiqish, suv turizmi, avtoturizm, piyoda yuriladigan turizm, sport turizmi va boshqalar). O'zbekistonda turizm sohasiga rahbarlikni "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi (27-iyul, 1992-yilda tuzilgan) olib boradi. Kompaniyaning asosiy vazifasi turizm infrastrukturasi rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaytirish va boshqalardan iborat. "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi sayohat qilish turiga qarab quyidagi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqqan: klassik yo'nalish (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent; Toshkent, Samarqand, BuxoroShahrisabz, Toshkent).

Bu yo'nalish eng qad. yodgorliklar va boshqa tarixiy madaniy obidalarga tashrif bilan bog'liq; ekologik turizm yo'nalishi (Chimyon, Chorvoq dam olish va davolanish oromgohi, Zomin qo'riqxonasi, Buxoro viloyatidagi qo'riqxonalar). Bu yo'nalish alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar va sayyohlar uchun ekologik jihatdan qulay g'amda foydali hisoblanadigan joylarga tashrif bilan bog'liq; arxeologik turizm yo'nalishi (Qoraqalpog'iston, Surxondaryo, Samarqand hududdari bo'ylab). Bu yo'nalish O'zbekistonning eng qad. topilmalari va arxeologik qazishmalar olib borilayotgan joylari bilan tanishishni maqsad qilib qo'yadi; ekstre mal turizm yo'nalishi (Chimyon, Farg'ona vodiysi, Orol bo'yi, Buxoro, Navoiy viloyati hududlari bo'ylab); liniy turizm yo'nalishi (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Toshkent) — mamlakatimizdagi tarixiy diniy obidalarini ziyorat qilish bilan bog'liq. Turizm

sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek, turistlar va turistik faoliyat sub'yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni kabul kilingan (20-avgust 1999).

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2005-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni (15-aprel 1999) sohani rivojlantirishda muhim omil bo'ldi. Turizm tashkilotlarini takomillashtirish hamda kichik va o'rta turistik korxonalarining xizmat ko'rsatish bozorini faollashtirish, shuningdek, xorijiy sarmoyani turizm sohasiga jalb qilish maqsadida 1998-yilda O'zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan Toshkentda "Xususiy sayyoxlik tashkilotlari uyushmasi" tashkil etildi. U 300 dan ziyod turistik korxonalar bilan yaqindan aloqada bo'lib faoliyat olib boradi.

O'zbekistonda "Kumushkon" turistik bazasi va "Sanzar" kemping majmuasi mavjud bo'lib, ular "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi tizimi tashkilotlari hisoblanadi. Shu bilan birga Chorvoq, Chimyon, Beldersoy dam olish oromgohlari va yuzga yaqin xususiy mehmonxonalar ishlab turibdi. O'zbekistonda ko'plab turistlarni qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan mehmonxonalar soni tobora o'sib bormoqda. O'zbekiston 1993-yilda o'z safiga 120 dan ortiq mamlakatni birlashtirgan Jahon turistik tashkiloti (WTO; 1975-yilda tuzilgan)ga a'zo bo'ldi. Shuningdek, O'zbekiston WTO Yevropa komissiyasi rayosatining ham a'zosidir. 2004-yil "Buyuk ipak yo'li" loyihasi doirasida Samarqand viloyatida Jahon turistik tashkilotining vakolatxonasini ochish ko'zda tutilgan.

O'zbekistonda turizm sohasiga oid "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turistik reklama axborot gazetasi (1994-yildan), "Biznes Gayd" JUR (RUS va ingliz tillarida) va boshqa ommaviy nashrlar chop etiladi. 2021-yil aprel oyida Dog'istonda O'zbekistonning ziyorat turizm salohiyati taqdimoti o'tkazildi. Bosh vazir o'rinbosari, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi raisi Aziz Abduhakimov topshirig'i bilan Dog'istonda «Imomlar yurtiga sayohat» yo'nalishidagi targ'ibot ishlari boshlangan. Andijon viloyatida 2022-yil yakuni bo'yicha mamlakatimiz bo'ylab jami 15 927,9 ming safar amalga oshirilgan. Ulardan 10 003,0 ming safarlari viloyatning shahar va tumanlari ichida, 5 664,6 ming safarlari viloyatning tashqarisida hamda 260,3 ming safari hududdan tashqarida amalga oshirilgan.

Andijon viloyatida o'zbek xalqi tarixini o'zida mujassam etgan muzey, tarixiy obida va yodgorliklar, shuningdek bahavo va xushmanzara dam olish maskanlari hamda muqaddas ziyoratgohlardan iborat yuzlab sayyohlik obektlari mavjud. Andijon viloyatidegi tarixiy obidalardan: Mingtepa, Imom ota ziyorotgohi, Xonobod sihatgohi, Jome' memoriy majmuasi, Ahmadbekhoji, Qa'la va boshqalar mavjud. Ular viloyatimizga sayyohlar kelishini oshirmoqda. Insonlarni jalb etish uchun targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Qayd etilishicha, ushbu forum Prezidentning 2022 yil 30

apreldagi «Ichki turizm xizmatlarini diversifikasiya qilishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi qarori ijrosi doirasida tashkil etilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Andijon viloyati turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi hamda viloyat hokimligi tomonidan o`tkaziladigan mazkur forumdan maqsad Xonobod shahrining toza havosi va tabiati haqida keng jamoatchilikka ma`lumot berish, tabiatni asrab-avaylash va ekologiyani saqlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar bo`yicha «Andijon viloyati tajribasi» bilan o`rtoqlashish hisoblanadi. Shuningdek, Xonobod shahrining turizm sohasidagi o`ziga xos salohiyati, rivojlanish istiqbollari va imkoniyatlarini ilmiy jihatdan tahlil etish, bu borada soha ekspertlari fikrlari bilan tanishish va Xonobod shahriga sayyohlar oqimini yanada oshirish maqsadida taklif va rejalar ishlab chiqish ko`zda tutilgan.

Mazkur forum an`anaviy tarzda har ikki yilda bir marta oktyabr oyida o`tkazilishi rejalashtirilgan. Forum xalqaro maqomga ega bo`lib, joriy yilda unda 7 ta xorijiy davlatdan (Bolgariya, Polsha, Xitoy, Hindiston, Qozog`iston, Qirg`iziston, va Rossiya) olimlar va professorlar, turizm sohasi ekspertlari ishtirok etishi rejalashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning Mamlakatimizda turizmni izchil rivojlantirish istiqbollari, sayyohlik ob`yektlaridan samarali foydalanish, ko`rsatilayotgan xizmat turlari sifatini oshirish, yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar oqimini ko`paytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahliliga bag`ishlangan yig`ilishdagi ma`ruzasi // 2017 yil. 3 oktabr.
2. O`zbekiston Respublikasi preidentining 2016 yil 2 dekabdagi “O`zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta`minlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-4861-sonli farmoni.
3. O`zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947 – son farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi.
4. Prezidentning 2022 yil 30 apreldagi «Ichki turizm xizmatlarini diversifikasiya qilishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi qarori ijrosi doirasida Xonaboddagi forumdan.
5. Mirziyoyev SH. YAngi O`zbekiston strategiyasi. Toshkent, O`zbekiston, 2021 yil, 173-174 betlar.
6. O`zbekiston Respublikasining Qonuni. Turizm to`g`risida. (YAngi tahriri). 2019 yil 18 iyul, O`RQ-549-son.
7. Xashimov SH.J. Buyuk Ipak yo`li milliy turizm rivojlanishining muhim asosi. Buyuk Ipak yo`lida umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta`lim va madaniyat. Xalqaro ilmiyamaliy konferensiya materiallari. Samarqand-SHanxay. 2019 yil, 191 bet.